

## QARIYALARNING IJTIMOYIY HIMOYA HUQUQI: INSON HUQUQLARI TIZIMI DOIRASIDA

**Sultonova Sarvinoz Shavkat qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20360345>

*Annotatsiya.* Ushbu maqola xalqaro inson huquqlari tizimi doirasida qariyalarning ijtimoiy himoya huquqini kompleks tarzda tahlil etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda BMT Nizomi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar xalqaro pakti (1966), BMT Qariyalar huquqlari prinsiplari (1991) va Madrid xalqaro harakatlar rejasi (2002) kabi asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqaviy huquqiy mexanizmlar va O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi xalqaro standartlar bilan qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquqiy tizimda qariyalar uchun majburiy kuchga ega bo'lgan yaxlit konvensiya mavjud emas va bu muhim huquqiy bo'shliq hisoblanadi. Maqolada ushbu kamchilikni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ham ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, qariyalar huquqi, xalqaro inson huquqlari, BMT prinsiplari, xalqaro-huquqiy standartlar, ijtimoiy ta'minot, ageizm.

### KIRISH

Jahon aholisining tez sur'atlar bilan qarishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro hamjamiyat oldiga yangi va murakkab muammolarni qo'ydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2030 yilga borib 60 yoshdan oshgan kishilar soni bir milliarddan oshib ketishi kutilmoqda va bu ko'rsatkich 2050 yilga kelib ikki milliardga etishi prognoz qilinmoqda.

Demografik o'zgarishlarning bunday shiddati ijtimoiy himoya tizimlarini qayta ko'rib chiqishni, xususan, qariyalarning huquqiy maqomini mustahkamlashni taqozo etmoqda. Ijtimoiy himoya huquqi zamonaviy xalqaro inson huquqlari tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tan olingan bo'lsa-da, qariyalarga nisbatan ushbu huquqni samarali ta'minlash borasida jiddiy kamchiliklar mavjud bo'lib qolmoqda. Bir tomondan, xalqaro-huquqiy hujjatlarda ijtimoiy ta'minot va himoya kafolatlari belgilangan, ikkinchi tomondan esa, aynan qariyalarga mo'ljallangan yaxlit va majburiy kuchga ega bo'lgan xalqaro konvensiya hamon qabul qilinmagan. Bu huquqiy bo'shliq ilmiy muhokama va siyosiy munozaralarning markazida turadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi xalqaro inson huquqlari tizimi doirasida qariyalarning ijtimoiy himoya huquqini kompleks tahlil qilish, mavjud xalqaro-huquqiy standartlarni tanqidiy baholash va ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan muvofiqlashuv darajasini aniqlashdan iborat. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: qariyalar ijtimoiy himoyasining nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish; asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlarni tizimli o'rganish; mintaqaviy huquqiy mexanizmlarni qiyosiy tahlil etish; O'zbekistondagi huquqiy tartibga solishni xalqaro standartlar nuqtai nazaridan baholash.

Tadqiqotda huquqiy tahlil, qiyosiy huquq va tizimli tahlil metodlari qo'llanilgan. Maqola tuzilmasi kirish, beshta asosiy bo'lim va xulosadan iborat bo'lib, har bir bo'limda tegishli adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili amalga oshirilgan.

### INSON HUQUQLARI TIZIMIDA QARIYALAR HUQUQINING ROLI

Inson huquqlari tushunchasi haqida so'z yuritilar ekan unga berilgan turli xil ta'riflarga duch kelishimiz mumkin. Ayrimlar, insonlarning munosib hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar, qiziqishlar va boshqa xususiyatlarni himoya qilishga qaratilgan huquqlar

desalar, boshqa toifadagi kishilar, inson huquqlari uning erkinligi, tengligi o'lchovi bo'lib insonning eng muhim bo'lgan ehtiyojlarini namoyo etishini ta'kidlaydilar.

Menimcha esa inson huquqlari - insonlarning tili, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va jinsidan qat'iy nazar barcha insonlarga teng bir xil ravishda ularning jamiyatda adolat va tenglik asosida turmush kechirishlarini ta'minlaydigan huquqlar majmui hisoblanadi.

Qariyalar huquqlari inson huquqlarining muhim va ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan sohasini tashkil etadi. Ushbu maqolada masalaning asosiy jihatlari, shuningdek qariyalar aynan qanday huquqlarini amalga oshirishda muammoga duch kelayotganligi o'rganilgan.

«Ijtimoiy himoya» va «ijtimoiy ta'minot» tushunchalari ilmiy adabiyotlarda ko'pincha sinonim sifatida qo'llanilsa-da, ular o'rtasida muayyan farq mavjud. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ta'rifiga ko'ra, ijtimoiy ta'minot deganda hayotning turli xavfli holatlarida — kasallik, ishsizlik, qarib qolish, mehnat layoqatini yo'qotish, oila boquvchisini yo'qotish va boshqa hollarda — kishilarga moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi tushuniladi. Ijtimoiy himoya esa bu tushunchadan kengroq bo'lib, nafaqat moddiy ta'minotni, balki huquqiy muhofaza, sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatini ham qamrab oladi.

Qariyalar ijtimoiy himoyasi kontekstida O'Connell va Clements ta'rifiga muvofiq, bu tushuncha kishining keksalik davrida insoniy qadr-qimmatini saqlab, mustaqil va faol hayot kechirishiga imkon beruvchi huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlar majmuini anglatadi<sup>1</sup>.

Ushbu ta'rif qariyalarni passiv yordam oluvchilar sifatida emas, balki huquqlaridan bahramand bo'luvchi faol subyektlar sifatida ko'rishni talab etadi.

«Ageizm» tushunchasi birinchi marta 1969 yilda amerikalik gerontolog Robert Butler tomonidan kiritilgan bo'lib, yoshga asoslangan stereotip, xurofot va kamsitishni anglatadi.

Ageizm nazariyasi nuqtai nazaridan qariyalarga nisbatan qo'llaniladigan kamsituvchi munosabat inson huquqlarining bevosita buzilishi hisoblanadi. Xalqaro Qarish Federatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, ageizm jamiyatda eng keng tarqalgan, lekin eng kam tan olingan kamsitish shakli bo'lib qolmoqda.

Avlodlar o'rtasidagi adolat nazariyasi esa ijtimoiy himoyaning boshqa bir muhim asosini tashkil etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, jamiyat har bir avlod a'zolariga — bolalar, o'rta yoshdagilar va qariyalarga — ularga xos ehtiyoj va imkoniyatlarga mos huquqiy kafolatlarni ta'minlash majburiyatini o'z zimmaciga oladi. Demak, qariyalar ijtimoiy himoyasi nafaqat xayriya va mehr-shafqat masalasi, balki huquqiy adolat tamoyilining talabi hisoblanadi. Xalqaro inson huquqlari tizimining poydevori bo'lmish 1948 yilgi Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi 22-moddasida har bir kishi ijtimoiy ta'minot huquqiga ega ekanligi e'lon qilingan<sup>2</sup>.

25-modda esa yanada aniqroq muddao bildirib, har bir kishining o'zining va oilasining sog'lig'i hamda farovonligi uchun yetarli hayot darajasiga huquqi borligi, shu jumladan, kasallik, nogironlik, beva qolish, qarib qolish yoki boshqoq holatlarda yordam olish huquqi kafolatlanganligini belgilab qo'ygan. Biroq ushbu deklaratsiya huquqiy jihatdan majburiy kuchga ega bo'lmagan deklarativ hujjat sifatida belgilangan bo'lib, u davlatlarga nisbatan bevosita huquqiy majburiyat yuklash imkoniyatidan mahrum. Shunga qaramay, ushbu hujjat keyinchalik qabul qilingan barcha xalqaro-huquqiy aktlar uchun kontseptual asos vazifasini o'tab kelmoqda va xalqaro inson huquqlari huquqining shakllanishiga turtki bo'lgan eng muhim manba sifatida tan olingan. 1966 yilda qabul qilingan Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar

<sup>1</sup> O'Connell, R., & Clements, L. (2012). The right to social security and welfare. In L. Clements & A. Burns (Eds.), *Social care law and older people*. Jordan Publishing

<sup>2</sup> <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

Xalqaro Pakti xalqaro inson huquqlari tizimida ijtimoiy huquqlarni majburiy normalar darajasiga ko'targan birinchi universal shartnoma hisoblanadi.

Paktning 9-moddasi davlatlarning ijtimoiy ta'minot huquqini, shu jumladan ijtimoiy sug'urtani tan olish majburiyatini belgilaydi<sup>3</sup>. 11-modda hayotning munosib darajasiga huquqni, 12-modda esa erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori sog'liqni saqlash standartiga bo'lgan huquqni mustahkamlaydi. Ushbu Pakt bo'yicha Qo'mita 2008 yilda «Keksalik huquqlari» mavzusidagi 6-sonli umumiy sharhida davlatlar zimmasidagi majburiyatlarni aniqlashtirdi.

Ushbu sharh davlatlardan pensiya tizimlarini qarib qolish xavfini to'la qamrab oluvchi tarzda tartibga solishni, ijtimoiy ta'minot imtiyozlarini taqdim etishda yoshga asoslangan kamsitishni yo'q qilishni va qariyalarga zarur tibbiy yordam hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashni talab qiladi. Ammo IIMHP doirasida ham muayyan kamchiliklar mavjud. Birinchidan, pakt «progressiv amalga oshirish» tamoyiliga asoslangan bo'lib, bu davlatlarga moliyaviy imkoniyatlar darajasida asta-sekin rivojlanishga ruxsat beradi.

Ikkinchidan, pakt «qariyalar» kategoriyasi alohida ajratilmagan va ular boshqa zaif guruhlar qatorida umumiy qoidalar asosida himoya qilinadi. Bu holat maxsus xalqaro normalar ishlab chiqish zaruratini yanada dolzarb qilib ko'rsatmoqda. 1991 yil 16 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi 46/91-sonli rezolyutsiyasi bilan «Qariyalar huquqlari to'g'risidagi BMT prinsiplari» qabul qilindi. Bu hujjat xalqaro huquqda aynan qariyalar kategoriyasiga bag'ishlangan birinchi universal akt bo'lib, beshta asosiy tamoyilni o'z ichiga oladi: mustaqillik (independence), ishtirok etish, parvarishlash, o'z-o'zini ro'yobga chiqarish (self-fulfilment) va qadr-qimmat (dignity). Mustaqillik tamoyili qariyalarning oziq-ovqat, suv, boshpana, kiyim-kechak va sog'liqni saqlash imkoniyatlariga kirish huquqini, shuningdek, ish, ta'lim va ijtimoiy dasturlarga qo'shilish imkonini kafolatlashni nazarda tutadi. Qadr-qimmat tamoyili esa birlamchi ahamiyat kasb etib, har bir qariyaning hurmat-izzat bilan muomala va xilma-xil kamsitish shakllaridan ozod holda yashash huquqini mustahkamlaydi. Prinsiplarning asosiy huquqiy zaifligi shundaki, ular tavsiyaviy xarakter kasb etib, davlatlar uchun yuridik jihatdan majburiy kuchga ega emas. Qaror qabul qilingan paytdan buyon o'ttiz yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, prinsiplarning bajarilishi ustidan mustaqil monitoring mexanizmi yaratilmagan.

Tadqiqotchilar Doron va Aronson (2019) ta'kidlashicha, ushbu holat xalqaro huquqda «qariyalar huquqlari tizimining me'moriy nuqsoni» (architectural deficiency) ni tashkil etadi.

2002 yilda Ispaniyaning Madrid shahrida bo'lib o'tgan Keksalik masalalariga bag'ishlangan II Jahon yig'ilishida qabul qilingan Madrid Xalqaro Harakatlar Rejasi (MXHR) xalqaro hamjamiyatning qarish sohasidagi siyosiy majburiyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Reja uchta ustun yo'nalishni belgilaydi: qariyalar va taraqqiyot; sog'liqni saqlash va farovonlik; imkoniyatlar va yordam ko'rsatuvchi muhit. Ijtimoiy himoya masalasi rejaning iqtisodiy ta'minot va qarib qolish xavflariga bag'ishlangan bo'limida alohida o'rin egallagan.

Rejaning amalga oshirilishini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar (BMT, 2018) shuni ko'rsatadiki, aksariyat davlatlar belgilangan maqsadlarga erishishda sezilarli kechikishga yo'l qo'ygan. Buning asosiy sabablari sifatida moliyaviy resurslarning cheklanganligi, siyosiy iroda yetishmasligi va bajarish ustidan samarali nazorat mexanizmining yo'qligi ko'rsatilgan. Bu vaziyat xalqaro hamjamiyatda Madrid rejalashtirishini majburiy standartlarga aylantirish zarurati to'g'risidagi munozarani kuchaytirdi. 1952 yilda Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 102-sonli Konvensiya ijtimoiy ta'minotning to'qqiz tarmoqda minimal standartlarini belgilaydi. Konvensiya V bo'limida keksalik nafaqasi (old-age benefit) alohida tartibga solingan

<sup>3</sup> [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/pact](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pact)

bo'lib, davlatlar 15 yildan kam bo'lmagan staj yoki muayyan yoshga (65 yosh) etganda nafaqa to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Bu hujjat xalqaro ish huquqi tizimida pensiya institutini tartibga soluvchi asosiy majburiy akt maqomiga ega.

Biroq 102-sonli Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar soni nisbatan cheklangan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati ushbu majburiyatlarni qabul qilishga tayyor emasligini bildirgan. Bundan tashqari, konvensiya mehnatkashlar himoyasiga yo'naltirilgan bo'lib, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan barcha qariyalarni, xususan, norasmiy iqtisodiyotda band bo'lganlarni to'la qamrab olmaydi. Xalqaro huquq tadqiqotchilari orasida hozirgi kunda eng muhim munozara qariyalar huquqlariga bag'ishlangan alohida BMT konvensiyasini ishlab chiqish zaruratiga taalluqli. Bugungi kunda bolalar huquqlari (1989), ayollar huquqlari (1979) va nogironlar huquqlari (2006) bo'yicha maxsus konvensiyalar mavjud bo'lgan bir paytda, qariyalarga bag'ishlangan shunga o'xshash hujjatning yo'qligi huquqiy tengliksizlikni keltirib chiqarmoqda.

Aksincha, fikr bildiruvchilar mavjud xalqaro instrumentlar bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarni to'g'ri va izchil bajarish yangisini qabul qilishdan ko'ra samaraliroq bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi. BMT Inson Huquqlari Kengashi tomonidan 2010 yilda tashkil etilgan.

Keksalik masalalari bo'yicha ochiq ishchi guruh ushbu munozarani rasmiy daraja da ko'rib chiqishni davom ettirmoqda. Yevropa Kengashi doirasida 1961 yilda qabul qilingan va 1996 yilda qayta ko'rib chiqilgan Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi mintaqaviy darajada ijtimoiy huquqlarni tartibga soluvchi eng mukammal hujjat sifatida baholanadi. Xartiyaning 23-moddasi to'g'ridan-to'g'ri keksa kishilarning ijtimoiy himoyasiga bag'ishlangan bo'lib, davlatlardan munosib hayot darajasini ta'minlash, yolg'izlik va uydan chiqib ketmaslik xavfini bartaraf etish hamda qariyalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar amalga oshirishni talab qiladi.

Yevropa Ijtimoiy Xartiyasining muhim xususiyati uning monitoring mexanizmidir: davlatlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni ko'rib chiquvchi Ijtimoiy Huquqlar Qo'mitasi xartiya talablarini bajarish yuzasidan xulosalar chiqarish vakolariga ega. Bu mexanizm BMT darajasidagi universal tizimlarga nisbatan ancha samarali ishlaydi va Yevropa makonida ijtimoiy standartlarning saqlanishiga hissa qo'shmoqda. 1981 yilda qabul qilingan Afrika Inson va Xalqlar Huquqlari Xartiyasi (Banjul Xartiyasi) ijtimoiy himoya masalalarini umumiy ko'rinishda tartibga soladi. 18-modda oila va unga muhtoj shaxslar, shu jumladan, qariyalarni himoya qilishni davlatlar zimmasiga yuklaydi. Biroq 2016 yilda qabul qilingan Afrika Inson va Xalqlar Huquqlari Protokoli loyihasida yosh va keksalik masalalariga aniqroq yondashuvlar kiritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida 1994 yilda imzolangan Ijtimoiy huquqlar va kafolatlar to'g'risidagi xartiya pensiya, ijtimoiy yordam va tibbiy xizmatlar sohasida minimal standartlarni belgilaydi. O'zbekiston ushbu hujjatni ratifikatsiya qilgan bo'lsa-da, uning bajarilishini ta'minlash mexanizmlari hali ham takomillashtirish bosqichida. O'zbekiston Respublikasining 2023 yilda yangilangan Konstitutsiyasi ijtimoiy himoya huquqini yangi mazmun bilan boyitdi. Konstitutsiyaning 39-moddasi fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqini kafolatlaydi, 40-modda esa sog'liqni saqlash huquqini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, 2021 yilda qabul qilingan «Keksalarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonun qariyalar huquqiy maqomini belgilovchi maxsus normativ-huquqiy akt sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat pensiya tizimi «Fuqarolarni pensiya bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonun asosida faoliyat yuritadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, erkaklar uchun pensiya yoshi 63, ayollar uchun

58 yoshda belgilangan bo'lib, pensiya miqdori ishlangan xizmat yili va oylik maoshga bog'liq tarzda hisoblanadi.

2019 yildan boshlab joriy etilgan pensiya tizimi islohotlari qo'shimcha va ixtiyoriy pensiya jamg'armalari imkoniyatlarini kengaytirdi. O'zbekiston IIMHP ni 1995 yilda ratifikatsiya qilgan va shu tariqa xalqaro ijtimoiy ta'minot standartlarini bajarishga huquqiy majburiyat olgan. Biroq BMT IIMHP Qo'mitasining oxirgi kuzatish xulosalarida (2019) bir qator kamchiliklar qayd etilgan: pensiya miqdorining yashash minimumidan pastligi, qishloq joylaridagi qariyalarning ijtimoiy xizmatlardan teng bahramand bo'lmasligi va nogironligi bor qariyalarga maxsus qo'llab-quvvatlash dasturlarining yetarli emasligi.

Muvofiqlashuv bo'shliqlari bir necha yo'nalishda kuzatilmoqda. Birinchidan, XMT 102-sonli Konvensiyasi O'zbekiston tomonidan hali ratifikatsiya qilinmagan. Ikkinchidan, BMT Qariyalar Huquqlari Prinsiplarida ko'rsatilgan ishtirok etish tamoyilining amalga oshirilishi — qariyalarning ijtimoiy siyosatni shakllantirishga jalb qilinishi — hali yetarli darajada ta'minlanmagan. Uchinchidan, qariyalar manfaatlarini himoya qiluvchi mustaqil vakillik institutlarining rivojlanish darajasi talab darajasida emas. Hozirgi xalqaro-huquqiy tartibga solishning asosiy muammosi «huquqiy bo'shliq» (legal gap) deb atalmish holatdir. Bolalar (1989 y.), ayollar (1979 y.) va nogironlar (2006 y.) huquqlari bo'yicha maxsus BMT konvensiyalari mavjud bo'lgan holda, 60 yoshdan oshgan 1 milliarddan ortiq kishiga nisbatan yagona majburiy xalqaro konvensiya hali mavjud emas. Ushbu huquqiy tengsizlik nazariy jihatdan asossiz bo'libgina qolmay, amaliy jihatdan ham jiddiy oqibatlariga olib kelmoqda: qariyalar uchun maxsus shikoyat mexanizmlari ishlamaydi, davlatlar bajarilishni ta'minlashga kam majbur his qiladi. Shuningdek, mavjud universal standartlarning «ko'rinmasligi» (invisibility) muammosi ham katta tashvish uyg'otmoqda. Aksariyat xalqaro inson huquqlari hujjatlari «hamma uchun» yoki «har bir kishi uchun» formulasidan foydalanadi, bu esa qarib qolish bilan bog'liq maxsus zaifliklarni ko'pincha ko'rib chiqmaydi. Holbuki, «universal» munosabat real tenglikni ta'min etmaydi — chunki teng bo'lmagan holatlarda teng munosabat adolatsizlikni chuqurlashtiradi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Xalqaro darajada BMT Keksalik masalalari bo'yicha ochiq ishchi guruhining ishini jadallashtirish va qariyalar huquqlariga bag'ishlangan maxsus konvensiya loyihasini ishlab chiqish zarur. Konvensiya mazmunida ijtimoiy himoya, tibbiy yordam, ish faoliyati, ta'lim, qadr-qimmat va kamsitishdan himoya masalalari o'z aksini topishi lozim.

Milliy darajada, xususan O'zbekiston Respublikasi uchun, quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: XMT 102-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish; pensiya miqdorini yashash minimumidan kam bo'lmasligi printsipin qonuniy mustahkamlash; qariyalar manfaatlarini ifodalovchi mustaqil ombudsman institutini joriy etish; qishloq joylardagi qariyalarga ko'chma ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish va ageizmga qarshi milliy dastur qabul qilish.

### **XULOSA**

Ushbu tadqiqot xalqaro inson huquqlari tizimi doirasida qariyalarning ijtimoiy himoya huquqini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, bir qator muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon berdi. Birinchidan, xalqaro-huquqiy tizimda qariyalarga mo'ljallangan universal majburiy konvensiyaning yo'qligi jiddiy huquqiy bo'shliq mavjudligini ko'rsatmoqda.

Bu kamchilik qariyalar guruhini xalqaro huquq doirasida himoya qilinadigan boshqa zaif guruhlar bilan tenglashgan huquqiy maqomdan mahrum etmoqda.

Ikkinchidan, mavjud xalqaro hujjatlar — IIMHP, BMT Prinsiplari va Madrid Harakatlar Rejasi — muhim tamoyillarni belgilagan bo'lsa-da, ularning amalga oshirilishi bajarilishini ta'minlash mexanizmlari etarli emasligi sababli zarur samaradorlikka erishmayapti.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi ijtimoiy himoya sohasida muayyan asosga ega bo'lsa-da, xalqaro standartlar bilan muvofiqlashuv bo'shliqlari mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish mamlakatimizning xalqaro huquqiy majburiyatlarini to'la bajarishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u birinchi marotaba o'zbek tilida qariyalar ijtimoiy himoya huquqini xalqaro inson huquqlari tizimi doirasida qiyosiy tahlil qilgan holda O'zbekiston qonunchiligi bilan mutanosiblashtirib ko'rsatdi va muvofiqlashuv bo'shliqlarini aniq belgilab berdi. Kelajakdagi tadqiqotlar xalqaro konvensiya ishlab chiqish metodologiyasini chuqurroq o'rganish va turli davlatlar amaliyotini qiyosiy tahlil qilishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Biggs, S., & Kimberley, H. (2013). Rights and older people. In S. Biggs & A. Lowenstein (Eds.), *Global aging: Comparative perspectives on aging and the life course*. Springer.
2. Butler, R. N. (1969). Age-ism: Another form of bigotry. *The Gerontologist*, 9(4), 243–246.
3. Doron, I., & Aronson, J. (2019). The missing framework: International law and the human rights of older persons. *International Journal of Law and Ageing*, 1(1), 1–22.
4. Fredvang, M., & Biggs, S. (2012). The rights of older persons: Protection and gaps under human rights law. *Social Policy Working Paper No. 16*, Brotherhood of St Laurence.
5. HelpAge International (2020). *Ageism: What it is and how to end it*. HelpAge International Publications.
6. Mahon, R., & O'Brien, M. (2018). Towards a rights-based approach to aging. *Global Social Policy*, 18(2), 112–131.
7. O'Connell, R., & Clements, L. (2012). The right to social security and welfare. In L. Clements & A. Burns (Eds.), *Social care law and older people*. Jordan Publishing.
8. BMT Bosh Assambleyasi. (1991). *Keksalar huquqlari bo'yicha BMT prinsiplari*. A/RES/46/91.
9. BMT Bosh Assambleyasi. (2002). *Madrid keksayish bo'yicha xalqaro harakat rejasi*. A/CONF.197/9.
10. BMT IIMHP Qo'mitasi. (2008). 6-umumiy sharh: keksalik davrida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar. E/C.12/GC/6.
11. BMT IIMHP Qo'mitasi. (2019). *O'zbekiston bo'yicha yakuniy kuzatish xulosalari*. E/C.12/UZB/CO/3.
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). *O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*.
13. Xalqaro Mehnat Tashkiloti. (1952). *102-sonli Konvensiya: Ijtimoiy ta'minot (minimal standartlar)*. Jeneva: XMT.
14. Yevropa Kengashi. (1996). *Qayta ko'rib chiqilgan Yevropa ijtimoiy xartiyasi*. Strasburg: Yevropa Kengashi.